JIZZAX VILOYATI SHAROF RASHIDOV TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 5-noyabr | 211-3-46-Q/24 | Sharof Rashidov tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta′minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi asosida, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tumandagi korxona va tashkilotlarda 2025 yil mobaynida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 180 ta ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta′minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga, “**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida**”gi Nizomga asosan, 20 nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 07 foizdan ortiq, (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 180 ta kvota ish o‘rinlari belgilash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida**”gi Nizomga asosan Nizomning 3-bandiga muvofiq, korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib

bo‘lingan shaxslar ish o‘rinlari 2025 yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan:

a) o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali, kichik yoshli ishlamagan ota-onalar uchun 7 foiz (32 kishi);

b) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta′limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta′lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta′lim olgan bitiruvchilari 07 foiz (101 kishi);

v) safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekistonRespublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 07 foiz (19 kishi);

g) nogironlar uchun 3 foiz (9 kishi);

d) pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 7 foiz (9 kishi);

e) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar, 7 foiz (7 kishi);

yo) Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun 7 foiz (2 kishi)

j) odam savdosi qurboni uchun 7 foiz (2 kishi)

z) oilaviy (maishiy) zo′rovonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun 7 foiz (3 kishi)

3.Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta'minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta'minlansin, xususan,

yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta'lim olgan bitiruvchilari uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun - mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun - maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa - maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari.

oilaviy (maishiy) zo‘rovonlik natijasida jabrlanganlar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

4. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rni ilgari ushbu ish o‘rnini egallab kelgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘xtatilishi munosabati bilan bo‘shab qolganda bu haqda tashkilot 10 kun muddatda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini yangidan ochilgan bo‘sh ish o‘rni to‘g‘risida xabardor etishi belgilansin.

5. Mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgilangan soni hisobida yil boshlangungacha 10 kundan kechikmay 25 foiz, qolgan qismini band qilib qo‘yishni keyingi kalendarь yilning birinchi choragida ta'minlasinlar.

Ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yilgan tashkilotlar har oyning xisobot oyidan keyingi kunning 5- sanasigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ushbu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirilishi to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot taqdim etsinlar.

6. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima solinadi.

Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

7. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka

koʻmaklashish boʻlimi bilan tuzilgan shartnoma asosida Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi mablagʻlari hisobidan qoplanishi ta'minlasin.

8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironligi boʻlgan shaxslarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning bandligiga koʻmaklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» 2021 yil 21 dekabrdagi PQ-57-son qaroriga muvofiq Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan nogironligi boʻlgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamgʻarmasida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya ajratilsin.

9. Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 5 sentyabrdagi “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qoʻllab-quvvatlash va ularning bandligiga koʻmaklashish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida“gi 450-sonli qaroriga asosan Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav (fondi) kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir shaxs uchun uch oydan ortiq muddatda mehnat faoliyatini davom ettirgandan soʻng bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik subsidiya ajratilsin.

10. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qoʻyish 1- ilovaga asosan tasdiklansin.

11.Tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada koʻrsatilgan tashkilot rahbarlari e'tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishini ta'minlasin.

12.Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

13.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining 1-oʻrinbosari M.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Xolbutayev**

Sharof Rashidov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
211-3-46-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2025 yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo‘lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi tarkibi

1. M.Ergashev	tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi
2. D.Rashidov	tuman KQ va BK bo’limi boshligi, komissiya raisi o‘rinbosar
3. I.Nazarov	iqtisodiyot va moliy bo’limi boshligi, komissiya a′zosi
4. E.Safarov	tuman statistika bo‘limi boshlig‘i, komissiya a′zosi
5. B.Turdikulov	tuman KQ va BK band bo‘lmagan aholini hisobga olish va ishga joylashtirish shubasi mutaxassisi, komissiya kotibi

Sharof Rashidov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
211-3-46-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Шароф Рашидов тумани бўйича 2025 йилда ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун банд қилиб қўйилган иш ўринларига ишга жойлаштириш бўйича МАНЗИЛЛИ ЖАДВАЛ

Т/р	Топшириқ белгиланган корхона номи	Корхонани ИНН рақами	корхонада ишловчилар сони	Жами банд қилинган иш ўринлари сони	шу жумладан:								
					14 ёшга тўлмаган болалари, ногиронлиги бўлган болалари бор ёлғиз отага ёки онага, шунингдек кўп болали оилаларининг ота-оналарига	Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим ташкилотларини, касб-ҳунар мактабларини, касб-ҳунар коллежларини ҳамда техникумларни тамомлаб, касбга эга бўлган ёшлар, «Меҳрибонлик» уйларининг битирувчилари, шунингдек олий таълим муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилари	Муддатли харбий хизматдан бўшатилганлар	Ногиронлар учун	Пенсионерлар ёшидаги шахслар учун	Жазони ўташ муассасаларида ги ёки суднинг қарорига кўра тиббий тусдаги мажбурлов чоралари қўлланилган шахслар учун	Одам савдоси қурбони учун	Атрофдагилар учун хавф туғдирмайдиган ижтимоий аҳамиятли касалликлардан азоб чекувчи шахслар ҳамда конуи ҳужжатларга мувофиқ бошқа шахслар учун	Оғлавий (мажний) зўровонлик натижасида жабрланганлар учун
1	Ш.Рашидов тумани Тиббиёт бирлашмаси	201369784	1845	30	8	13	2	2	3				2
2	Ш.Рашидов тумани Давлат санитария-эпидемиология маркази	201009850	42	1		1							
3	Жиззах вилояти Руҳий касалликлар диспансери	201672829	275	4	2	2							
4	Ш.Рашидов туман"Жиззах санаторияси"	204317252	104	3	1	1			1				
5	Ш.Рашидов тумани 1-сонли касб ҳунар мактаби	307873301	91	2		1	1						
6	Ш.Рашидов тумани 2-сонли касб ҳунар мактаби	307773774	93	1		1							
7	Ш.Рашидов тумани Халқ таълими бўлими	201369776	68	1		1							
8	Ш.Рашидов тумани№ 1-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872694	82	1		1							
9	Ш.Рашидов тумани№ 3-сон умумий ўрта таълим мактаби	206876142	90	1	1								
10	Ш.Рашидов тумани№ 4-сон умумий ўрта таълим мактаби	206876142	99	2	1	1							
11	Ш.Рашидов тумани№ 5-сон умумий ўрта таълим мактаби	206880313	118	2		1			1				
12	Ш.Рашидов тумани№ 6-сон умумий ўрта таълим мактаби	206876134	109	3	1	1		1					
13	Ш.Рашидов тумани№ 9-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872100	64	1		1							
14	Ш.Рашидов тумани№ 10-сон умумий ўрта таълим мактаби	203354382	107	2		1	1						
15	Ш.Рашидов тумани№ 11-сон умумий ўрта таълим мактаби	203192110	122	2		1	1						
16	Ш.Рашидов тумани№ 12-сон умумий ўрта таълим мактаби	206864047	124	3	1	1		1					
17	Ш.Рашидов тумани№ 13-сон умумий ўрта таълим мактаби	206874880	119	2		1	1						
18	Ш.Рашидов тумани№ 14-сон умумий ўрта таълим мактаби	203204268	121	2	1	1							
19	Ш.Рашидов тумани№ 15-сон умумий ўрта таълим мактаби	206864023	84	2	1	1							
20	Ш.Рашидов тумани№ 16-сон умумий ўрта таълим мактаби	206865916	79	1		1							
21	Ш.Рашидов тумани№ 17-сон умумий ўрта таълим мактаби	206880320	109	3	1	1	1						
22	Ш.Рашидов тумани№ 18-сон умумий ўрта таълим мактаби	206865948	68	1		1							
23	Ш.Рашидов тумани№ 19-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872243	119	3		2	1						
24	Ш.Рашидов тумани№ 20-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872250	110	3	1	1	1						
25	Ш.Рашидов тумани№ 21-сон умумий ўрта таълим мактаби	206873006	108	1		1							
26	Ш.Рашидов тумани№ 22-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872038	91	2		1	1						
27	Ш.Рашидов тумани№ 23-сон умумий ўрта таълим мактаби	203278896	89	2		1			1				

31	Ш.Рашидов тумани№ 27-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872274	68	2	1	1							
32	Ш.Рашидов тумани№ 29-сон умумий ўрта таълим мактаби	206865909	107	2		1			1				
33	Ш.Рашидов тумани№ 30-сон умумий ўрта таълим мактаби	203271108	89	2		2							
34	Ш.Рашидов тумани№ 31-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872267	113	1		1							
35	Ш.Рашидов тумани№ 32-сон умумий ўрта таълим мактаби	203262134	86	2		1	1						
36	Ш.Рашидов тумани№ 33-сон умумий ўрта таълим мактаби	206864030	48	1		1							
37	Ш.Рашидов тумани№ 34-сон умумий ўрта таълим мактаби	203286032	63	1		1							
38	Ш.Рашидов тумани№ 35-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872045	76	2	1	1							
39	Ш.Рашидов тумани№ 36-сон умумий ўрта таълим мактаби	202384734	105	3		2		1					
40	Ш.Рашидов тумани№ 37-сон умумий ўрта таълим мактаби	206874074	63	2		1	1						
41	Ш.Рашидов тумани№ 38-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872282	67	1		1							
42	Ш.Рашидов тумани№ 39-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872117	56	2		1	1						
43	Ш.Рашидов тумани№ 40-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872124	68	1		1							
44	Ш.Рашидов тумани№ 41-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872299	49	1		1							
45	Ш.Рашидов тумани№ 42-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872084	55	1		1							
46	Ш.Рашидов тумани№ 43-сон умумий ўрта таълим мактаби	206911368	57	1		1							
47	Ш.Рашидов тумани№ 44-сон умумий ўрта таълим мактаби	206880344	53	2		1		1					
48	Ш.Рашидов тумани№ 45-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872228	50	1		1							
49	Ш.Рашидов тумани№ 46-сон умумий ўрта таълим мактаби	203293870	47	2		1	1						
50	Ш.Рашидов тумани№ 47-сон умумий ўрта таълим мактаби	206880337	48	2	1	1							
51	Ш.Рашидов тумани№ 50-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872235	71	1		1							
52	Ш.Рашидов тумани№ 53-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872092	57	1		1							
53	Ш.Рашидов тумани№ 54-сон умумий ўрта таълим мактаби	206904620	69	1		1							
54	Ш.Рашидов тумани№ 55-сон умумий ўрта таълим мактаби	206865924	78	2		1	1						
55	Ш.Рашидов тумани№ 56-сон умумий ўрта таълим мактаби	206872077	53	1		1							
56	Президент таълим муассасалари агентлиги тизимидаги Шароф Рашидов тумани ихтисослаштирилган мактаби давлат муассасаси	309867314	69	2	1	1							
57	Ш.Рашидов тумани№ 1-сон "Наъматак" номли МТМ	207003064	86	1		1							
58	Ш.Рашидов тумани № 2-сон МТМ	207031441	45	1		1							
59	Ш.Рашидов тумани№ 3-сон "Гунча" номли МТМ	207005171	50	1		1							
60	Ш.Рашидов тумани№ 4-сон "Лола" номли МТМ	207031781	50	2		1		1					
61	Ш.Рашидов тумани№ 5-сон "Бошоқча" номли МТМ	207152759	55	1		1							
62	Ш.Рашидов тумани№ 6-сон "Озода" номли МТМ	207033541	28	1		1							
63	Ш.Рашидов тумани № 7-сон ДМТМ	207050807	55	2		1			1				
64	Ш.Рашидов тумани№ 9-сон "Баҳор" номли МТМ	207003071	61	1		1							
65	Ш.Рашидов тумани№ 13-сон "Дилноза" номли МТМ	207003056	57	1		1							
66	Ш.Рашидов тумани№ 14-сон ДМТМ	207003095	57	2	1			1					
67	Ш.Рашидов тумани№ 15-сон ДМТМ	207262241	41	1	1								
68	Ш.Рашидов тумани№ 17-сон ДМТМ	207050799	38	1		1							
69	Ш.Рашидов тумани№ 18-сон ДМТМ	207050664	44	1		1							

73	Ш.Рашидов тумани№ 22-сон ДМТМ	207050774	40	1		1							
74	Ш.Рашидов тумани№ 23-сон ДМТМ	207050767	63	1	1								
75	Ш.Рашидов тумани№ 24-сон ДМТМ	207050782	30	1		1							
76	Ш.Рашидов тумани№ 25-сон ДМТМ	205669653	63	1		1							
77	Ш.Рашидов тумани№ 27-сон "Истиклол" номли МТМ	207003088	46	1		1							
78	Ш.Рашидов тумани№ 1-сон Болалар ва ўсмирлар спорт мактаби	207238547	68	1		1							
79	Ш.Рашидов тумани№ 8-сон Болалар мусика ва санъат мактаби	207057646	55	2		1	1						
80	Ш.Рашидов тумани Баркамол авлод болалар маркази	207123761	47	1		1							
81	Вилоят Насос станциялари, энергетика ва алока бошкармаси	202390055	308	5	1	2	1			1			
82	Ш.Рашидов тумани Йўл хўжалиги пудрат таъмирлаш-фойдаланиш давлат корхонаси	206904620	125	4						2		2	
83	Ш.Рашидов тумани Ободонлаштириш бошкармаси	201009503	151	6	1		1			2	2		
84	Жиззах Мелеротив экспедицияси	202395784	204	5		3				2			
85	Аёллар мурувват интернат уйи	309929591	85	6	2	2			1				1
			8518	180	32	98	19	8	9	7	2	2	3